

8-sinf

Mavzu: Mustaqil va nomustaqil kesim shakllari.

Ta'limiy maqsad :

Yangi mavzuni o'quvchilarga tushuntirish, o'quv materiallarining mazmunini bilish, ya'ni ushbu mavzuga tegishli ilmiy bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotga tadbiq qila olish.

2. Tarbiyaviy maqsad:

Yangi mavzuni tushunish va o'tilgan mavzularni takrorlash borasida tuzilladigan gaplar orqali va uning mazmunida yotgan g'oyalar, dunyo qarashlar ta'sirida o'zining shaxsiy sifatlarini, imon – e'tiqodlarini shakllantirish.

3. Rivojlantirish maqsad:

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini rivojlantirish, nutq jarayonida tilning ifoda vositalaridan o'rinli foydalanish.

4. Dars turi: Aralash, musobaqa.

Darsni tashkil etish texnologiyasi:

metod: ta'limiy o'yinlar (orzular kemasi,)

vosita: Ko'rgazmali qurollar: Tarqatma materiallar , ko'rgazmali vositalar, darslik, o'quv qurollari, AKT vositalari.

Darsning borishi. Tashkiliy qism. Avvalombor o'quvchilar bilan salomlashib , o'quvchilar davomatini aniqlash. Bugungi sana, kun hamda oy kunlarini ayitish hamda o'quvchilarning o'quv qurollarini nazorat etish, uyga berilgan vazifalarini so'rash.

#	Dars rejasi	Tashkiliy qism
1	Tashkiliy qism: Salomlashish,davomatni aniqlash,sana va mavzuni yozuv taxtasiga yozish , haftaning eng muhim yangiliklari bilan tanishish.	7 daqiqa
2	Uyga vazifani so'rash	6 daqiqa
3	Yangi mavzu: Mustaqil va nomustaqil kesim shakllari..	7 daqiqa
4	Mustahkamlash. Mashq va topshiriqlar bajarish.	10 daqiqa
5	O'quvchilar bilimini baholash. O'rinli rag'batlantirish.	6 daqiqa

O'quvchilardan uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni takrorlash hamda yangi mavzuning bayoni 2 bosqichda amalga oshiriladi.

1. Bosqich: O'quvchilarning kelajakdagi tanlaydigan kasblariga yo'naltirish maqsadida "Orzular kemasi"da mashqi tashkil qilinadi. Bunda o'quvchilarning kelajakda kim bo'lishingizni o'zlari xohlagan tilda og'aki tarzda tushunarli bayon qilishiga undaladi. Ularning tuzgan gaplaridan kesimni va u qanday kesim ekanligini og'zaki ravishda ta'kidlab o'tishadi. **(Bu topshiqriqni bajarish orqali kommunikativ (o'zaro muloqotda o'z ona tilisi bilan birgalikda xorijiy tilni o'zlashtirganligi) va ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarining (kasbiy mavqeiga erishish, jamiyatda o'z o'rnini topish) elementlari shakllanishiga erishiladi).**

2.Bosqich: Uyga berilgan vazifani so'rash. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarga uyda televeziy orqali bugungi kun yangiliklarini tinglab , ot-

kesim va fe'l kesim ishtirok etgan gaplardan namunalar yozganlari o'qitiladi va ularning javoblari baholanadi.

2. O'tilgan mavzuni takrorlash maqsadida o'quvchilar diqqatiga audio matn havola etiladi va quyidagi topshiriqni bajarish ta'kidlanadi. (SHu o'rinda sinf o'quvchilari 2 guruhga bo'linadi) Guruhlarga topshiriq. Eshitilgan matndan gapnlarning kesimini topish va ular qanday so'z turkumlari bilan ifodalanganligini aniqlash. Matndan namuna:

Mardlik – bu ezgu tuyg'u, muqaddas fazilat, tabarruk meros. Mardlik – bu inson qalbidagi quyosh, u mardlarga nur sochadi. Mard bo'lgan kishida haqiqat, qanoat, sabr, ezgulik, vijdon, adolat, diyonat, insof; nomardlarda yolg'izlik, yomonlik, ojizlik, makkorlik, hasad, adovat, razolat, yuzsizlik, xiyonat, tubanlik, noinsoflik kabi sifatlarni uchratish mumkin.

Guruhlarning javoblari quyidagicha bo'lishi mumkin.

Javoblar: Matndagi gaplarda ot-kesim, fe'l kesimlar mavjud. Ushbu kesimlar ot va fe'l so'z turkumlari bilan ifodalangan. **(Ushbu topshiriqni bajarish orqali o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasi (mavjud audio matndan tilning ifoda vositalarini izlash va saralash) shakllanadi).**

Dars davomida o'quvchilarning bilimlarini 5 ballik mezon asosida baholanib boriladi. Baholash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

O'quvchilarning har bir berilgan to'g'ri javob uchun 1 balldan baholanib, dars so'ngida umumlashtirilib ball qo'yiladi.

1 ball Umid uyg'ondi.

2 ball Senga ishonaman

3 ball Ozgina harakat

4 ball Qoyil

5 ball BARAKALLA!!! (Ushbu baholash orqali o'quvchilarda shaxs sifatida o'zini – o'zi rivojlantirish kompetensiyasi shakllanadi)

Yangi mavzuning bayoni : “So’zdan gap tuz” ta’limiy o’yini tashkil qilinadi. Bunda o’quvchilarga hikmatlar xazinasidan quyidagi hikmat havola etiladi. Berilgan hikmat tarkibidagi har bir tayanch so’z yordamida gap tuzish topshirig’i beriladi.

“Ko’ngil daryosining gavhari tildir” (Alisher Navoiy)

O’quvchilarning tuzgan gaplari quyidagicha bo’lishi mumkin.
Masalan:

1. *Ko’ngil qancha keng bo’lsa, unga yo’l topish shuncha oson.*

2. *Ko’z yoshlar daryosining ortiga berkinma, yaxshisi undan omon chiqish yo’lini ,izla!*

3. *Aqlli fikrni oltin uzuk deb bilsak, chiroyli nutq , shubhasiz, unung gavhari.*

4. *Insonni kashf etuvchi ham, uni fosh etuvchi ham tildir.*

Alisher Navoiyning berilgan hikmati o’qituvchi yordamida tahlil qilinadi. Ya’ni Alisher Navoiyning qalamiga mansub ushbu hikmat mazmuni izohlanadi. O’quvchilar hayotiy misollar asosida o’z fikrlarini quyidagicha bayon etadilar.

Javobdan namuna: Alisher Navoiyning “Ko’ngil daryosining gavhari tildir” xikmatida daryoda har qanday narsalar,jumladan, chig’anoq , tosh, gavharlar bo’ladi. Shularning ichida gavhar eng qimmatlisidar , ko’ngilni bir daryo deb olsak, uning gavhari tildir. Kongil daryosi dil bo’ladi, u dilni ochadigan kalit tildir. Til orqali xushmuomilaligi, shurinsuxanligi odobi, madaniyati tili gavhar bo’lib ko’rinadi .

Yangi mavzuni yanada chuqurroq tushunish maqsadida o'quvchilar darslikdagi 141- mashqni bajaradi. Topshiriqqa asosan, o'quvchilar kesimlarning biri shart mayli bilan ifodalangan qo'shma gaplarni, alohida – alohida sodda gapga ajratishi lozim.

Topshiriq: Yomg'ir yogsa, cho'llar yashnaydi. Tuyog'inga ursang shohi zirqiraydi.

Namuna javob: Yomg'ir yog'adi va cho'llar yashnaydi. Tuyog'iga uradi va shohi zirqiraydi.

Topshiriqni bajarish orqali yangi mavzuning qoidasi kelib chiqadi

Kesim gapning bosh bo'lagi hisoblanadi. Ular o'z navbatida mustaqil va nomustaqil turlarga bo'linadi. Shart mayldagi fe'llar ravishdosh shakllari bilan ifodalanib, qo'shma gap qismlaridan birining kesimi bo'lib kelgan shakllar nomustaqil kesimlar deb ataladi.

Masalan: Dovul ko'tarilib, yomg'ir yog'adigan bo'lib qoldi. U kelsa, men ketaman.

Har doim alohida qo'llan oladigan gaplar tarkibida qatnashgan kesimlar esa mustaqil kesimlar deyiladi.

Masalan: Dars boshlandi. Dars boshlandi va qo'ng'iroq chalindi.

Yangi mavzuni mustahkamlash:

1- topshiriq: O'quvchilar diqqatiga audio tasma orqali darslikdagi 142- mashq o'qib eshittiriladi. O'quvchilar mashqdan xalq maqollarini ajratib, kesimlarni mustaqil va nomustaqiligiga ajratib daftarga yozishligi topshiriq beriladi.

142-masahq.

Qalb salomat bo'lsa, aql ham, fikr ham salomat bo'ladi. Agar shu ko'rganlarni hikoya qilib bersa, ular ishonmaydilar. Aravalar bugun yetib borishsa, ular ertaga qaytib kelishlari mumkin. Havo bulut bo'lsa

ham, yomg'ir yog'maydi.. Mehnat qilsang , baxting ochiladi. Sen yiglasang men qo'shilib yig'lab yuboraman.

Maqollar: Qalb salomat bo'lsa, aql ham, fikr ham salomat bo'ladi. Mehnat qilsang , baxting ochiladi. Shu tariqa o'quvchilar davom ettiradi. (Ushbu topshiriqni bajarish orqali o'quvchilarda umummadaniy kompetensiyasi shakllanadi)

2- topshiriq:O'quvchilarga audio matn o'qib eshitiriladi .

O'quvchilar matndan mustaqil va nomustaqil kesimarni topish vazifasi topshiriladi.

Matndan namuna:

Vatanga muhabbat

Vatan! Bu so'z bizning qalbimizga ona allasidan , uning qaynoq muhabbatidan singadi. Agar ma'lum bir muddat o'z uyimizdan sal olisroqda yashab qolsak , ko'nglimiz g'ash bo'laveradi. Har qanday ko'ngilochar narsalar ham bizni quvontira olmaydi. Negaki , biz o'z go'shamizni qo'msay boshlaymiz. Bu Vatanni servishning bir ko'rininshi emasmi?! Vatanga muhabbat, uni ardoqlash, ona – Vatanga tegishli bo'lgan har bir narsani muqaddas bilish, o'zini shu Vatan kengliklariga daxldor deb his haqiqiy insonlarga xos fazilatdir.

Bu aziz kunlarga xalqimiz osonlikcha erishgani yo'q. Begunoh kishilarning muborak ruhlarini shod etmoq uchun, Vatanimizning har bir fuqorasi qo'lidan kelgancha xayrli ishlarni bajarishi shart. Shukurlar bo'lsinki, mustaqillik degan buyuk ne'matga erishgach, buyuk kelajak barpo etishga kirishildi. Buning uchun esa mustaqilligimizni yanada mustahkamlash uchun intilishimiz kerak.

(Bu topshiriq orqali o'quvchilarning eshtish qobiliyatlari shakllanadi, balki axborot vositalari bilan ishlash kompetensiyali shakllanadi.)

Uyga vazifa : Nomustaqil kesim ishtirok etgan xalq maqollaridan beshtasini yozing va tabiatni kuzating kuzatish asosida mustaqil va nomustaqil kesim ishtirok etgan gaplar tuzing.

O'qituvchi tomonidan o'quvchilar izohli baholanadilar. O'z o'rnida "Rag'batnomalar" bilan rag'batlantiriladi.

Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 249- umumiy o'rta ta'lim maktabining ona tili va adabiyot fan o'qituvchisi Tojiyeva Dilduzaning Ona tili fanidan "Mustaqil va nomustaqil kesim shakllari.." mavzusidagi ochiq dars ishlanmasi.